

ZAMONAVIY PEDAGOG SHAXSIDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Avezova Zarnigor

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Pedagogika nazariyasi va tarixi"

yoʻnalishi 1-bosqich magistranti

zarnigoravezova16@gmail.com

+998 912443445

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagog shaxsining kasbiy madaniyatini shakllantirish va uni takomillashtirish yoʻllari yoritilgan. Maqolada pedagogik faoliyatda axloqiy qadriyatlar, kommunikativ madaniyat, estetik dunyoqarash va kasbiy oʻzini tutish koʻnikmalarining oʻrni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy taʼlimda innovatsion yondashuvlar va AKTdan samarali foydalanish orqali kasbiy madaniyatni rivojlantirishning metodik asoslari koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: Kasbiy madaniyat, pedagog shaxs, kommunikativ kompetensiya, axloqiy qadriyatlar, innovatsion yondashuv, taʼlim.

Аннотация: В статье рассматриваются общая и профессиональная культура учителей и их роль в педагогической деятельности.

Ключевые слова: учитель, культура, деятельность, профессия, умение, компонент, опыт, установка, мировоззрение, процесс.

Abstract: This article explores ways to develop and improve the professional culture of the modern educator. It discusses the role of ethical values, communicative culture, aesthetic worldview, and professional behavior in pedagogical activity. The article also analyzes methodological foundations for enhancing professional culture through innovative approaches and effective use of ICT in modern education.

Keywords: Professional culture, pedagogical personality, communicative competence, ethical values, innovative approach, education.

Bugungi globallashtirish davrida zamonaviy pedagogdan nafaqat mustahkam nazariy bilim, balki yuqori darajadagi kasbiy madaniyat ham talab etiladi. Kasbiy madaniyat — bu pedagogik faoliyatda axloqiy-etik, estetik, huquqiy, kommunikativ va psixologik komponentlarning uygʻunlashgan shaklidir. U pedagog shaxsining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va texnologik oʻzgarishlarga moslashuvchanligini taʼminlaydi.

Jahon pedagogik amaliyotida mutaxassis kadrlarning kasbiy madaniyati va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ularning o'zgaruvchan mehnat bozori

talablariga moslashuvchanligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tendentsiya so'ngi vaqtlarda xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan "pedagogik dunyoqarash" (pedagogical worldview) muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Darhaqiqat, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy tabiatining doimiy o'sish va o'zgarishda ekanligi zamonaviy mutaxassislardan, xususan, pedagog-o'qituvchilardan o'z kasbiy qadriyatlarini va shaxsiy e'tiqodlariga ega bo'lishni, nafaqat o'zining, balki o'zga madaniyatni ham qabul qila bilishni, ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq pedagogik dunyoqarashi va qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi¹.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, xalqaro standart asosida yuqori malakali, "kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellectual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar" sifatida belgilangan.

Kasbiy madaniyatga oid qarashlar qadimgi qo'lyozmalarda, diniy va didaktik manbalarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Avesto"da kasb-hunarga hurmat, kasbga sadoqat, mehnatsevarlik, xushmuomalalikka undovchi hikmatlar, Islom dini ta'limotida mehnat qilish va uning ortidan topilgan boyliklardan zakot berilishi, har bir musulmon kishi o'z kasbining orqasidan halol yo'l bilan rizq topishi kerakligi haqidagi o'gitlar odamlarda kasbiy madaniyat rivoji odob-axloq qoidalariga bog'liq ekanligi asoslangan.

Kasbiy madaniyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Kasbiy madaniyat — bu pedagogning mehnat faoliyatidagi madaniy-axloqiy me'yorlarga asoslangan yurish-turishi, kasbiy etika va estetikasi, o'z kasbiga sadoqat va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Axloqiy madaniyat – odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.

- Kommunikativ madaniyat – samarali muloqotga tayyorlik;
- Estetik madaniyat – tashqi ko‘rinish, nutq madaniyati;
- Pedagogik etika – kasbiy etika me‘yorlari;
- Innovatsion kompetensiyalar – yangi metodlarni qo‘llash qobiliyati.

Zamonaviy pedagog shaxsida kasbiy madaniyatni takomillashtirish zarurati

Zamonaviy ta‘lim muhitida pedagog:

- doimiy o‘zgaruvchan sharoitga moslasha olishi,
- axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni singdira olishi,
- texnologik yangiliklardan foydalanishga tayyor bo‘lishi lozim.

Shuning uchun kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonida quyidagi yo‘llar muhimdir:

- Refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish;
- Pedagogik treninglar va seminarlar;
- Ochiq darslar va ustoz-shogird tizimi;
- Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish.

Qachonki pedagog qobiliyatli, salohiyatli, kasbiy va shaxsiy kompetentligi yuqori bo‘ladigan bo‘lsagina u maqsadiga erisha oladi. Pedagogik qobiliyat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishni belgilaydi.

Qobiliyat faoliyat jarayonida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida pedagogik qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lishi shart.

- akademik qobiliyat (bilish qobiliyati)
- didaktik qobiliyat (o‘rgatuvchanlik qobiliyati)
- nutq qobiliyati (nutq madaniyati)
- ijodkorlik qobiliyati (yaratuvchanlik qobiliyati)
- avtoritar qobiliyati (shaxsiy qobiliyati)
- kommunikativ qobiliyati (muloqotga kirishish qobiliyati)
- diqqatni to‘g‘ri taqsimlash qobiliyati
- perseptiv qobiliyat (pedagogik ziyraklik, empatiya, intuitsiya);

O‘qituvchi ta‘lim jarayonida o‘qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishi, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyala bilan boyitishni puxta bilishi lozim.

Kasbiy bilimlar o‘qituvchi kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. O‘qituvchining bilimi, bir tomondan, o‘zi o‘qitadigan fanga, ikkinchi tomondan, talabalarga qaratiladi. Kasbiy bilimlar mazmunini o‘quv fani hamda uni

o'qitish metodikasi, psixologik va pedagogik jihatdan tashkil qilinadi. Kasbiy pedagogik bilimlarning o'ziga xos jihatiuning majmuaviyligi hamda integrativligidan iborat. Kasbiy bilimlar asosida o'qituvchining harakatlari, odatlari, o'z faoliyatiga asoslangan qonuniyatlari va tamoyillarini belgilab beruvchi pedagogik tafakkuri shakllanadi.

O'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda motivlar birinchidan, kasbiy muvaffaqiyatga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi.

Bugungi kun pedagoglariga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Pedagogni o'ta yuqori kompetentli bo'lishga undayapti. "Kompetentlik" tushunchasi - ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasiga kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noananaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vaziyatlarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Kompetensiya so'zi - inglizcha "competence" lug'aviy jihatdan bevosita qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni yoritishga xizmat qiladi.



Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarining egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya

mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M. Umumiy pedagogika (Pedagogik mahorat) Darslik. Toshkent 2019 y.
2. Содиқов Ҳ.М. Бўлажак ўқитувчиларнинг мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг самарали йўллари. // Халқ таълими журнали. (2-сон) – Тошкент, 2020. 2-сон.
3. Sodiqov Kh. Development of Communicative and Speech Culture in the process of professional development of future teachers. // International Conference. Science, research, development philology, sociology and culturology №5 – Берлин, 2018.
4. Содиқов Ҳ.М. Ўқитувчи фаолиятида мулоқот маданиятининг ўрни. // “Тафаккур ва талқин” илмий тўплам. –Тошкент, 2016.
5. Содиқов Ҳ.М. Ахборот-коммуникацион технологиялардан тўғри фойдаланиш – давр талаби. «Фан таълим ва амалиёт» мажмуасининг долзарб муаммолари. ЖДПИ профессор-ўқитувчилари ва иқтидорли талабаларининг илмий мақолалари тўплами. 13-чиқиши. –Тошкент, 2019
6. Orishev Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal:Vol. 2021: Iss. 2, Article 16.